

**INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

ABDUHAMIDOVA DURDONA XURSHEDOVNA
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI TALABASI
+99899 007 75 00

ANNOTATSIYA:

Til ko'nikmalarining har biri bilan ishlash, ularni shakllantirish hamda rivojlantirish zamonaviy metodologiyanning asoslaridan biridir. Shuningdek, hozirgi zamonaviy ingliz tilida tinglab tushunishni rivojlantirish bo'yicha bir qancha metodlarni amalda qo'llash mumkin. Xususan mazkur maqolada tinglab tushunish ko'nikmasini yaxshilash hamda uni rivojlantirish bo'yicha bir nechta usullar haqida ma'lumot olasiz.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, tinglash qobiliyatini yaxshilash, 3*3 metod, storytelling circle.

Abstract

Working with each of language skills, their formation and development is one of the basics of modern methodology. Therefore, several methods of developing listening comprehension can be used in current modern english. Especially in this article you will also learn about several ways to develop listening comprehension.

Key Words: listening, improving listening skills, 3*3 method, storytelling circle.

Ma'lumki, har qanday tilni o'rganish nutqiy faoliyatning 4 ta asosiy omili vositasida amalga oshiriladi. Bular gapirish [speaking], o'qish [reading], yozish [writing], tinglab tushunish [listening] jarayonlari bo'lib, xususan chet tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda nutqiy faoliyatning mazkur 4 ta turlarini o'rganish muhim hisoblanadi, chunki ular orqali ma'lumot olinadi va ma'lumot beriladi. Ma'lumot olish tinglab tushunish va o'qish orqali amalga olinsa, ma'lumot berish esa gapirish hamda yozish orqali amalga oshadi. Nutq faoliyatining shakli esa ikki xil; yozma va og'zaki. Og'zaki nutq tinglab tushunish va gapirishni o'rgatishni, yozma nutq esa o'qish va yozishni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Tinglash-nutq faoliyatining retseptiv turi bo'lib, uning yordamida eshitish analizatorning ishlashi asosida nutq xabarini qabul qilish va keyinchalik qayta ishlash jarayoni amalga oshiriladi. Tinglash-bu tovushlarga e'tibor berish va ulardan ma'no olishga harakat qilishdir. Biroq ilgari zamonlarda buni passiv faoliyat deb taxmin qilingan. Aslida esa tinglash bu eng faol jarayon hisoblanadi. Benetning ta'kidlashicha, tinglash bir yoki ikki tomonlama jarayondir. Ikkala jarayon o'z o'zidan paydo bo'ladi va shu bilan ular o'zaro bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 30% so'zlash, 16%

o'qish va 9% yozish bilan taqqoslaganda o'rtacha 45% tinglashga sarflanadi. ya'ni har qanday standartga ko'ra, tinglab tushunish uchun juda ko'p vaqt sarflanadi. Shu sababli ham samarali tinglashingizni ta'minlash uchun biroz ko'p vaqt sarflash maqsadga muvofiqdir. Manbalarda keltirilishicha, eshitish bilan tinglash bir xil emas. Eshitish - bu sizning qulog'ingizga kiradigan tovushlarni bildirsa, tinglash esa ruhiy va jismoniy diqqat hamda jamlangan harakat talab qiladi. Shu sababli ham tinglash passiv jarayon emas.

Tinglab tushunish malakasi chet tilida zaruriy mashqlarni bajarish orqali shakllanadi va rivojlanadi. Til ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha umumiy bilimlardan foydalanib, tinglash qobiliyatini yaxshilash bo'yicha ba'zi usullarni sanab o'tishimiz mumkin:

-Tinglash qobiliyati yuzma-yuz muloqot orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilida muloqot qilish orqali yangi tilni tanishtirish va tinglash qobiliyatini sinab ko'rish imkoniyati mavjud.

-Tinglash ma'noga e'tibor qaratish va maqsadli tilda yangi va muhim tarkibni o'rganishga harakat qilish orqali rivojlanadi. Bu orqali esa ison o'zining lingvistik va nolingvistik tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.

-Tinglash qobiliyati tushunish faoliyati ustida ishlash orqali rivojlanadi. Inson qanchalik o'z ustida ko'p ishlasa, u shunchalik o'sadi. Xuddi shuningdek inson qanchalik ko'p "listening practise" qilsa, tinglash qobiliyati shunchalik yaxshilanadi.

-Tinglash aniqlikka e'tibor berish va tahlil qilish orqali rivojlanadi. Tovushlar va so'zlarni to'g'ri idrok etib eshitish "listening comprehension" ni rivojlantiradi.

-Tushunish sifatida tinglash-tinglashning tabiati haqida fikrlashning an'anaviy usuli. Ko'pgina metodik qo'llanmalarda tinglash va eshitish sinonimdir. Tinglashning bunday ko'rinishi ikkinchi tilni o'rganishda tinglashning asosiy vazifasi og'zaki tilni tushunishni osonlashtiradi.

-Asosiy ma'nosini tinglash orqali tinglab tushunishni rivojlantirish mumkin. Bunda top-down hamda bottom-up strategiyalaridan foydalanish mumkin.

Bulardan tashqari, tinglab tushunishni rivojlantirish uchun 3*3 metodi va storytelling circle usullaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi.

3*3 Metod: Bu metod tinglab tushunishni rivojlantirish uchun foydali bo'lib, bu usul listening comprehension hamda listening speed ni oshirishga yordam beradi. Bu uchun, har qanday listeningni eshitgandan keyin uni 3*3 tezlikda qo'yib eshitib, tahlil qilish kerak. Bu orqali esa siz IELTS va CEFR imtihonidan yuqori ball olishingiz mumkin.

Storytelling Circle: Bu metod esa guruh bilan ishlashda juda samaralidir, hamda aktiv jarayon bo'lishi uchun yordam beradi. Bu metod uchun bir inson hikoya, ertak aytishni boshlaydi va uni boshqalar davom ettirishi kerak bo'ladi. Bu hikoya

tugaguncha davom etadi. Bu usul diqqat bilan eshitish ko'nikmasini hamda tinglashda detallarga e'tibor qaratishni rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tinglab tushunish-bu amaliyot orqali rivojlantirilishi kerak bo'lgan murakkab mahorat. Sizning samarali tinglash qobiliyatingiz xabarlarini qanday qabul qilish va tushunishingiz darajasiga bog'liq. Bu uchun vaqtni ayamadan faqatgina shug'ullanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://portlandenglish.edu/learn-english-blog/top-5-tips-for-improving-ielts-listening-skills/>
2. <https://keithspeakingacademy.com/improve-speaking-listening-skills-english-ielts-speaking/>
3. <https://goaravetisyan.ru/uz/vidy-i-tehnika-slushaniya-kratko-aktivnoe-slushanie-cto-eto-v-psihologii-test/>